

UDK: 311. 31

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH NATIJALARINI BAHOLASH

Ziyayev Zoxidjan Muratovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi direktori o‘rinbosari
E-mail: z.ziyaev@stat.uz

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida zarur bo‘ladigan muhim iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni monitoringini yuritishga doir indikatorlarni shakllantirish borasida Statistika agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, erishilayotgan yutuqlar hamda kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erish natijalarini baholash, monitoring qilish va ular haqida jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakolatxonasi va uning tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida Statistika agentligi vakolatlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ma‘limotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ming yillik rivojlanish maqsadlari, barqaror rivojlanish maqsadlari, rezolyutsiya, vazifalar, indikatorlar, taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar, statistik tahlil, xalqaro reytinglar, ixtiyoriy milliy sharh, statistik ko‘rsatkichlar to‘plam, SDG Tracker, monitoring, veb sayt, ma‘lumotlar, ixtiyoriy milliy hisobot, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohadagi kun tartibi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье описывается работа, проводимая Агентством статистики по формированию важных экономических и социальных показателей, необходимых в процессе принятия управленческих решений на новом этапе проводимых в стране реформ, а также по формированию индикаторов для мониторинга достижения Целей устойчивого развития, освещена также работа по мониторингу результатов достижения Целей устойчивого развития в Республике

Узбекистан и информированию о них общественности. Также представлена информация о проектах, реализуемых в рамках полномочий Агентства по статистике в сотрудничестве с международными организациями, в том числе с представительством Организации Объединенных Наций и ее структурными подразделениями, по достижению целей в области устойчивого развития.

Ключевые слова: цели развития тысячелетия, цели устойчивого развития, резолюция, задачи, индикаторы, сопоставимые показатели, статистический анализ, международные рейтинги, добровольный национальный обзор, сборник статистических показателей, Трекер ЦУР, мониторинг, веб-сайт, данные, добровольный национальный обзор, Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 г.

ABSTRACT. This article describes the work carried out by the Statistics agency on the formation of important economic and social indicators necessary in the process of making managerial decisions at a new stage of reforms being carried out in the country, as well as on the formation of indicators for monitoring the achievement of the Sustainable Development Goals, also highlights the work on monitoring the results of achieving Sustainable Development Goals in the Republic of Uzbekistan and informing the public about them. Information is also provided on projects implemented under the authority of the Agency on Statistics in cooperation with international organizations, including the representative office of the United Nations and its structural divisions, to achieve sustainable development goals.

Key words: Millennium Development goals, sustainable development goals, tasks, resolution, indicators, comparable indicators, statistical analysis, international ratings, voluntary national review, collection of statistical indicators, SDG tracker, monitoring, website, data, voluntary national review, 2030 Agenda for Sustainable Development.

KIRISH

Yangi O'zbekiston uchun o'tib borayotgan so'nggi olti yil tarixiy ahamiyatga ega davr bo'ldi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchillik bilan davom ettirilishi barobarida, respublikamizning dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni tiklash va uni kuchaytirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Pirovard natijada yurtimizning dunyo miqyosida mavqeyi yuksalib, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori yanada ortib bormoqda.

Xususan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan mintaqa va dunyo hamjamiyati oldida turgan muammolarning yechimi borasidagi qator tashabbuslar xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanayotgani, ushbu tashabbuslar

asosida xalqaro tashkilotlarning normativ hujjatlari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilayotgani buning isboti hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 2020-yil 14-dekabr kuni "Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi. Ushbu rezolyutsiyani qabul qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yilda BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan edi.

Umuman olganda Barqaror rivojlanish deganda nima tushuniladi?

Barqaror rivojlanish - bu hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishda kelajak avlodga zarar yetkazmasdan rivojlanish tushuniladi.

Yoki boshqacha aytganda, barqaror rivojlanish - bu hozirgi faoliyat va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondirishda kelajak avlodlarga zarar yetkazmaydigan, balki ular o'rtasida muvozanatni topadigan rivojlanishdir.

Barqaror rivojlanish (ingl. sustainable development), shuningdek, uyg'un rivojlanish, muvozanatli rivojlanish - bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, unda tabiiy resurslar, investitsiya yo'nalishi, ilmiy va texnologik rivojlanish yo'nalishi, shaxsiy rivojlanish va institutsional o'zgarishlar bir-biri bilan muvofiqlashtiriladi va inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun hozirgi va kelajakdagi salohiyatni mustahkamlaydi.

Barqaror rivojlanish deganda ko'p jihatdan, odamlar hayoti sifatini ta'minlash tushuniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70-son rezolyutsiyasiga [10] muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish" ni o'z zimmasiga olgan. Bu borada, ayniqsa, keyingi yillarda tizimli ishlar olib borilib, Prezidentimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida O'zbekistonda mazkur milliy maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi [12] nutqida mintaqaviy va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, inson huquqlariga rioya etishni qo'llab-quvvatlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag'allikni qisqartirish kabi dolzarb masalalar yuzasidan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

"Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani qabul qilish haqidagi taklifi esa, mazkur xalqaro tashkilotning 2022-yil 14-dekabr kuni bo'lib

o'tgan sammitida [13] bir ovozdan ma'qullandi. Bu mintaqa va dunyo hamjamiyati oldida turgan muammolarning yechimi borasida O'zbekiston tashabbuslari xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanayotgani, ular asosida xalqaro tashkilotlarning normativ hujjatlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilayotganini yana bir tasdig'i hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida mantiqiy fikrlash iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga oid ilmiy izlanishlari, iqtisodiy jarayonlarni kuzatish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, ilmiy-uslubiy tadqiqot mavzusidagi adabiyotlardan foydalanildi. Axborot bazasi sifatida Statistika agentligining ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo hamjamiyati tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha qaror qabul qilinishi va Ming yillik rivojlanish dasturi o'rtasidagi uzviylik.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining negizida Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha erishilgan yutuqlar yotadi va qashshoqlikning barcha ko'rinishlariga barham berish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirishga qaratilgan.

Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari dunyoning eng qashshoq mamlakatlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash orqali rivojlanishni jadallashtirishdan iborat bo'lib, BMTga a'zo 193 ta davlatlar tomonidan 2000- yilda 23 ta xalqaro tashkilotlar ishtirokida 2015- yilga kelib erishishga kelishib olingan sakkizta xalqaro rivojlanish maqsadi hisoblanadi.

Ming yillik rivojlanishning sakkizta maqsadi:

- I. Qashshoqlik va ocharchilikka barham berish;
- II. Umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash;
- III. Gender tengligini targ'ib qilish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish;
- IV. Bolalar o'limini kamaytirish;
- V. Onalar salomatligini yaxshilash;
- VI. OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;
- VII. Ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- VIII. Rivojlanish uchun global hamkorlikni shakllantirish.

Ushbu maqsadlar 2000- yilda Ming yillik sammitida [8] rasman belgilab qo'yildi, unda ishtirok etgan barcha davlatlar rahbarlari BMTning Ming yillik Deklaratsiyasini qabul qilishdi va ijrosini ta'minlashga kirishdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan EKOSOSning 2015-yilda bo'lib o'tgan yuqori darajadagi majlisida [9] dunyoning barcha mintaqalari va mamlakatlarida sakkizta maqsadni amalga oshirishning yakuniy natijalari jamlangan hisoboti taqdim etildi.

Hisobotda ushbu maqsadlarga erishish uchun global sa'y-harakatlar millionlab odamlarning hayotini saqlab qolgani va millionlab odamlarning hayotini yaxshilashga yordam bergani qayd etildi. Shuningdek, Ming yillik rivojlanish maqsadlari natijasida yer yuzidagi milliarddan ortiq odamni qashshoqlikdan xalos qilingani va ocharchilikka qarshi kurashda ulkan yutuqlarga erishilgani ko'rsatib o'tildi.

Hisobotda qayd etilishicha, global miqyosda o'ta qashshoqlikda yashovchi odamlar soni ikki baravarga qisqarib, 1990-yilda 1,9 milliard kishi bo'lgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 836 millionni tashkil etgan.

Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari dasturini qabul qilgan mamlakatlar uning muvaffaqiyati, shuningdek, 2015- yildan keyin yangi kun tartibini qabul qilish zarurligini tan olgan holda, 2012- yildan boshlab BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasida mamlakatlar barqaror rivojlanish bo'yicha majmuini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzishga qaror qilishgan edi.

Bir yildan ortiq davom etgan muzokaralardan so'ng ishchi guruh, barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadini aniqlash bo'yicha tavsiyalar berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlat rahbarlari tomonidan 2015-yil avgust oyi boshida "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi" nomli yangi kun tartibining [10] yakuniy hujjati bo'yicha kelishuvga erishildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70-sessiyasida qabul qilingan "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohadagi kun tartibi" deb nomlanuvchi rezolyutsiyasi [11] bilan Barqaror rivojlanishning global miqyosda erishilishi rejalashtirilgan 17 ta maqsad va mazkur maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan 169 ta vazifalar belgilandi.

Yuqorida qayd etilgan rezolyutsiyaga muvofiq 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohadagi belgilangan maqsadlarga erishish uchun, dunyodagi har bir davlat geografik joylashuvi, imkoniyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'zining milliy maqsadlari va ularga erishish strategiyasini belgilab olgan.

O'zbekiston Respublikasida ham "2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohadagi kun tartibi"ni amalga oshirishning aniq mexanizmini shakllantirish va ularga erishish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi tomonidan yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlar tuzilib, har bir global maqsad va vazifalarni milliy

ustuvorliklardan kelib chiqqan xolda moslashtirish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi.

Mazkur ishchi guruhlar o'rganishi natijasida, jami 17 ta Global Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 16 tasi bo'yicha O'zbekistonda tegishli ishlar amalga oshirilishi imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, O'zbekiston hududi okean va dengiz bilan tutashmaganligini inobatga olib "Barqaror rivojlanish uchun okeanlar, dengizlar va dengiz resurslarini saqlash va barqaror foydalanish" deb nomlanuvchi 14 maqsad va uning tarkibiga kiruvchi 10 ta vazifalar O'zbekistonda erishilishi imkoniyati mavjud emas deb topildi.

Shundan so'ng, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 841-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarb hisoblangan 16 ta maqsad va 125 ta vazifa tasdiqlandi.

Keyinchalik, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son qarori [4] bilan belgilangan 16 ta maqsadlarga erishish uchun 126 ta vazifalar tasdiqlandi hamda ushbu vazifalar ijrosini monitoringini yuritish uchun Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan 190 ta milliy BRM indikatorlari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erish natijalarini monitoring qilish va ular haqida jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatish hamda ushbu sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq va o'z vaqtida tayyorlangan, xarakteristikallari bo'yicha taqsimlangan, dolzarb va foydalanish uchun qulay bo'lgan statistik ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Bu borada statistika hamjamiyatiga, 2030- yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi ko'rsatkichlarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Dunyoning boshqa davlatlari kabi O'zbekiston Respublikasi ham Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy miqyosda amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgach, hukumat tomonidan tegishli qarorlar qabul qildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 83-son qarori [4] bilan 16 ta milliy maqsad va 126 ta vazifa tasdiqlandi.

Milliy miqyosda BRM ga erishish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida, Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi, shuningdek, Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda


tarmoqlararo muvofiqlashtirish va integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlash maqsadida "Iqtisodiy farovonlik", "Ijtimoiy himoya", "Sog'liqni saqlash", "Ta'lim", "Atrof-muhit", "Samarali boshqaruv" kabi ekspert guruhlarini tashkil etildi.

Statistika agentligi rahbarligida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining ko'rsatkichlari bo'yicha idoralararo ishchi guruhi faoliyati yo'lga qo'yilib, Barqaror rivojlanish maqsadlarining global ko'rsatkichlari asosida MBRM ko'rsatkichlari tizimini doimiy yangilab borish va uning metodologiyasini shakllantirish, ko'rsatkichlarni doimiy asosda to'plash va MBRM veb-portalida (www.ndsg.stat.uz) e'lon qilib borish kabi vazifalar yuklatilgan.

O'tgan davr mobaynida Statistika agentligi tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni monitoringini olib borish uchun, global BRM indikatorlar ro'yxati asosida shakllantirilgan, O'zbekiston uchun muhim hisoblangan 190 ta milliy barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari ro'yxati ishlab chiqildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limining veb sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ilg'or tajribalarga ega davlatlarning ushbu sohada amalga oshirayotgan ishlari yoritib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi 2022- yil yakuniga ko'ra 87 ta eng ilg'or tajribaga ega davlatlar qatoridan joy oldi va mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatib borish va jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot e'lon qilindi (1-rasm).



1-rasm. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatib boorish va jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar [14]

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarni kuzatib borish va ushbu sohada mamlakatdagi mavjud vaziyat to'g'risida dolzarb ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida, Birlashgan Millatlar

Tashkiloti Taraqqiyot dasturining texnik ko'magi bilan 2019-yilda O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha veb-sayt (<https://nsdg.stat.uz/>) ishlab chiqildi.

Ushbu veb-sayt konsepsiyasi sohadagi eng ilg'or texnologiyalar va uslubiy ishlanmalar, shuningdek, so'nggi yangiliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari veb-sayti O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha yutuqlarni tahlil qilish va kuzatishda milliy va xalqaro foydalanuvchilar uchun yagona va ishonchli ma'lumotlar manbasi hisoblanadi.



2-rasm. Barqaror rivojlanishning global miqyosda erishilishi rejalashtirilgan 17 ta maqsadi

Mazkur qulayliklar ma'lumotlarni tarqatishni osonlashtiradi. Veb-sayt dasturiy vositalardan foydalanmasdan turdi darajadagi tafsilotlar bilan yangi ko'rsatkichlarni, shuningdek ular uchun uslubiy ma'lumotlarni yuklashga imkon beradigan, foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega. Platformani yuklab olish va boshqarish uchun ma'lumotlar oqimini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Veb-sayt zamonaviy vizualizatsiya usullarini amalga oshiradi, bu foydalanuvchiga analitik jadvallarni yaratish va grafik tasvirlarning eng mos turlarini tanlash imkonini beradi.


Hisoblash metodologiyasi va boshqa ma'lumotlar mavjud bo'lgan har bir indikator uchun taqdim etilgan. Veb-sayt o'zbek, rus va ingliz tillarida yuritiladi. Veb-sayt MDH mamlakatlari orasida ilg'or amaliyotning ajoyib namunasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasidir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan 2018-, 2019-, 2020- va 2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasida Milliy BRMLarga erishish bo'yicha statistik

ko'rsatkichlar to'plamlari" uch tilda (rus, o'zbek va ingliz tillarida) tayyorlangan va nashr etilgan (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida Milliy BRMLarga erishish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar to'plamlari

Bundan tashqari, Statistika agentligi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi milliy taraqqiyotni o'lchash va mamlakat o'z milliy ma'lumotlari va ko'rsatkichlaridan foydalanishi uchun taraqqiyot to'g'risida siyosiy jihatdan hisobot berish uchun mo'ljallangan yangi ESKATO-BRM vositasi "SDG Tracker" ni joriy etildi va foydalanuvchilarga qulay boshqaruv panelini yaratildi. Hozirda mavjud ma'lumotlarni BRM "SDG Tracker" boshqaruv paneliga kiritish bo'yicha ishlar olib borilmoqda (4-rasm).



4-rasm. Barqaror rivojlanish maqsadlarining ESKATO tomonidan ishlab chiqilgan "SDG Tracker" platformasi

Bugungi kunda Statistika agentligi tomonidan yuritiladigan milliy BRM veb saytida uchta tilda (rus, o'zbek va ingliz tillarida) 128 ta milliy BRM ko'rsatkichlari, 60 ta ko'rsatkich esa "Tracker" BRM boshqaruv panelida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgust "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarorining [3] 1-ilovasiga muvofiq 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlangan.

1-jadval

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari veb-saytida joylashtirish uchun indikatorlar sonini umumiy tasdiqlangan indikatorlarga nisbatan soni

	2019-yil hisobot yili	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Reja, % da	32,5	41,2	45,6	51,5	55,8	60,2	65,0
Amalda, % da		59,8	64,3	65,8	66,3		

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar qatorida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari veb-saytida joylashtirish uchun indikatorlar sonini umumiy tasdiqlangan indikatorlarga nisbati bo'yicha ham rejalar belgilangan (1-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birlashgan millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70/1-son rezolyutsiyaning 79-bandida aynan ushbu sohada milliy darajada amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida tavsiyalar keltirilgan.

Ushbu tavsiyalar quyidagicha bayon etilgan: Shuningdek, biz a'zo davlatlarni milliy va submilliy darajadagi taraqqiyotning muntazam va keng qamrovli tahlilini o'tkazishga undaymiz, bunda mamlakatlarning o'zlari bu hisobotlarni boshqarib boradilar. Bunday hisobotlar milliy sharoit, strategiya va ustuvorliklarga muvofiq mahalliy xalqlar, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor va boshqa manfaatdor tomonlarning fikrlarini hisobga olishi kerak. Bu jarayonlarni boshqa institutlar qatori milliy parlamentlar ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Ushbu milliy hisobotlar EKOSOS homiyligida yig'iladigan Oliy darajadagi siyosiy forum tomonidan muntazam ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining 84-bandida ko'rsatilganidek, Oliy darajadagi siyosiy forumning muntazam

hisobotlari ixtiyoriy bo'lib, davlatlar tomonidan boshqariladigan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan o'tkazilishi va ko'plab manfaatdor tomonlarni jalb qilishi kerak.

Ixtiyoriy milliy hisobot 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibini amalga oshirishni jadallashtirish, shu jumladan muvaffaqiyatlar, qiyinchiliklar va olingan saboqlar bo'yicha tajriba almashishga qaratilgan. Shuningdek, hukumat siyosati va institutlarini mustahkamlashga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ko'p tomonlama sheriklikni qo'llab-quvvatlash va kuchlarni safarbar etishga qaratilgan.

2023-yil iyul oyida bo'lib o'tadigan ushbu yuqori darajadagi siyosiy forumda 2 ta ma'ruzachi (davlat) birinchi marta, 39 tasi ikkinchi marta va 1 tasi uchinchi marta Ixtiyoriy milliy hisobotini taqdim etadi. O'zbekiston ilk bor Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi Ixtiyoriy milliy hisobotini 2020-yil taqdim etgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat ijrosi doirasida 2022-2026-yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, ikkinchi ixtiyoriy milliy hisobotga tayyorgarlik bo'yicha "Yo'l xaritasi" ga asosan ixtiyoriy milliy hisobotning dastlabki loyihasi tayyorlanib manfaatdor vazirlik va idoralar hamda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar tomonidan hisobotni takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Bertelsmann xalqaro jamg'armasi tomonidan, mamlakatlarni asosiy indeksleri bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini o'rganib chiqadi va shunga asosan har yilda bir marotaba reyting natijalarini e'lon qiladi. Mazkur reytinglar dunyoning yetakchi ilmiy tashkilotlarining 300 ga yaqin ekspertlari tomonidan to'plangan ma'lumotlari tadqiqotlari asosida tuzib chiqiladi.

Bertelsmann xalqaro jamg'armasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga ko'maklashish dasturi doirasidagi mustaqil tashkilot hisoblanib, jamg'arma mustaqil ekspertlari, Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksini hisoblab chiqish jarayonida 17 ta maqsad bo'yicha 100 ga yaqin xalqaro indeks va indikatorlarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar manbalarini tahlil qilib chiqgach yillik reytingni e'lon qiladi.

Bertelsman jamg'armasi tomonidan 2022-yil e'lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi hisobotida O'zbekiston 163 ta mamlakat orasida 69,9 indeks bilan 77-o'rinni egallagan.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi shundan dalolat beradiki, O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish sohasida olib borilayotgan barcha

islohotlarni davom ettirgan holda, "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili asosida taraqqiy etishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgust *"Rasmiy statistika to'g'risida"*gi O'RQ-707-son Qonuni. <http://lib.stat.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-aprel *"Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi PQ-4273-son qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.04.2019-y., 07/19/4273/2914-son. <http://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgust *"O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-4796-son qarori, 03.08.2020-yil, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2020-y., 07/20/4796/1136-son. <http://lib.stat.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 21- fevraldagi *"2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi 83-son qaror.
5. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>
6. Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>
7. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha maxsus sayt: <http://nsdg.stat.uz>.
8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ming yillik sammiti 2000-yil 6-8-sentabr.
9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (Economic and Social Council) 2015-yil 9-10-iyil yuqori darajadagi majlisi.
10. Birlashgan millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25 sentabrdagi 70/1-son rezolyutsiyasi.
11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015- yil 25 sentabrdagi 70-sessiyasi.
12. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasining 2020- yil 23- sentabrdagi 75-sessiyasi.
13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasining 2022- yil 14-dekabrda "Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasi.
14. <https://unstats.un.org/wiki/display/sdgGoodPractices/Countries%3A+SDG+platform>.